

## MOZIYGA QAYTIB ISH KO'RISH HAYRLIKDIR YOXUD ABDULLA AVLONIYNING XOTIRLAB...

*Marjona Chorchanbiyeva*

*Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti*

*Maxsus pedagogika va inkluziv ta'lim fakulteti*

*Surdopedagogika yo'nalishi talabasi*

### ANNOTATSIYA

Vatanining mustabidlar zulmidan ozod bo'lishini, millati farzandlarini sharafiga to'lganlar qatorida ko'rishni orzulagan xalqimizning qalbi uyg'oq farzandlarini tarbiyalagan adib Avloniy xalq ma'naviyatini boyitish yo'lida olib borgan kurashlar, milliy matbuot adabiyot va teatrning odamlar tafakkurini oshirishdagi ahamiyati haqida asarlari bilan yuzlashamiz.

**Kalit so'zlar:** She'rlar, pedagogik asarlar, maqolalar, teatr, drama.

### ANNOTATION

We are faced with the struggle of our motherland for freedom from the oppression of the mustabids, the struggle of adib Avlani, who raised the awake children of the heart of our people, who dreamed of seeing the children of his nation among the honored, the National Press about the importance of literature and theater in enhancing people's thinking.

**Key words:** Poems, pedagogical works, articles, theater, drama

Xalq ma'naviyatini boyitish yo'lida olib borilgan kurashlar, milliy matbuot, adabiyot va teatrning odamlar tafakkurini oshirishdagi ahamiyati haqida asarlarida kuyunib yozgan, bu borada fidoyilik ko'rsatgan, aloqibat qatog'onga uchraganlar haqida so'z borarkan, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Usmon Nosir, siymolari ko'z oldimizda gavdalanadi. Ular o'z asarlarida ko'targan muammolar hamon bizning qarshimizda bo'y ko'rsatib turibti. Biz hamon "millatni uyg'otish uyg'onganlarning vazifasi" degan chorlovga munosib javob qaytarolganimiz yo'q.

**Tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir.** Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir. Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyatan turlicha ifodalanib kelingan bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan. Tarbiya maqsadi ijtimoiy buyurtma asosida belgilanadi. Eng oddiy harakatdan tortib, keng ko'lamlı davlat dasturi asosida tashkil etiluvchi tarbiya

doimo muayyan maqsadga qaratilgan bo'ladi. Maqsadsiz, ma'lum g'oyani ifoda etibmaydigan tarbiya bo'lmaydi. Tarbiya asosida uning mazmuni asoslanib, maqsadni amalga oshirishga xizmat qiluvchi metod va usullar aniqlanadi. Tarbiya maqsadining muommosi pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga mahkumdur. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma'naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy intizomlar tizimiga ega bo'lishi lozim. "Tarbiya", "Tarbiyalash" tushunchalarini tahlil etib ko'radigan bo'lsak, pedagogik adabiyotlarda bu so'z odatda ongli ravishda shaxsga uni biror bir ijtimoiy rolni bajarishga tayyorlash uchun ijtimoiy ta'sir etish buning uchun o'sha shaxsda zarur bo'ladigan sifatlarni paydo qilish yaratish tarzda ifodalanadi. Tarbiya borasida Sa'diy Sheroziy shunday misralarni bitgan:

Minbarning poyida tursa ham eshak,  
Tarbiya yuqmaydi, bo'lmaydi odam.  
Tarbiya ko'rmayin ulg'aysa kishi.

Eshak bo'lib qolur yuzga kirsam ham Tarbiyaga e'tiborsizlikning oqibati nimalarga olib kelishini o'z vaqtida Abdulla Avloniy kuyunib, "Bugungi kunda jamiyatimizning yuzini qora qiluvchi pastkashlar, yomonlar, beboshlar, o'g'rilar, g'iyohvandlar va nashavandlar... kecha tarbiyalariga e'tibor berilmagan bolalardir", deb yozib qoldiradi. Adabiyotshunos olim Abdurauf Fitrat "Xalqning harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi, zaif bo'lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e'tibordan qolishi, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi bolalikdan o'z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog'liq. Bolalar axloqiy tarbiyani muhitdan oladilar, boshqacha qilib aytganda, bolalar suvga o'xshaydi, suv idishning shaklini olganidek, bolalar ham muhitning odob-axloqini qabul qiladilar", deydi. Alixonto'ra Sog'uniy tarbiya xususida shunday yozadi: "Yolg'iz insonga emas, barcha jonlik mavjudotlarda ta'lim-tarbiya ta'siri ko'z oldimizda ko'rilib, buning natijalari butun dunyoga tarqalib turmoqda. O'qitish-o'rgatish buyon tursin, suhbat o'zi ham, suhbatdoshlarga o't bilan suvdek tez o'tadi. Shuning uchun ham har kimga, suhbat yo'ldoshlariga qarab baho beriladi". Darhaqiqat, nafaqat bir oila, balki er sayyorasidagi har bir mamlakatning gullab-yashnashi, undagi yashovchi xalqlarning farog'ati ham shak-shubhasiz ta'lim va tarbiya

tufaylidir. Ma'lumki, ulug' mutafakkir Abu Ali ibn Sino merosida ilm va axloq uyg'unligi masalasi alohida o'rin tutadi. Allomaning "Tadbiri manzil" risolasida tarbiya masalasi ko'proq tahlil etilgan. Xususan, "Tadbiri manzil"da inson tayyor shaxsiy sifat, odat va ko'nikmalar bilan tug'ilmasligi qayd etiladi. Bunday xususiyatlar odamning ijtimoiy hayotida sekin-asta shaxsiy va o'zgaralar tajribasi, avvalgi ajdodlar an'analari, ta'lim-tarbiya o'zgalarning ta'siri ostida shakllanadi. Shaxs kamolotida ijobiy fazilat va odatlarni qaror toptirish qanchalik qiyin va mushkul bo'lsa, ma'naviy qiyofaga yopishib olgan salbiy jihat va odatlardan xalos bo'lish shunchalik murakkabdir. Bunda tarbiya ishi bilan maxsus tuzilgan ijtimoiy muassasalar shug'ullanishi nazarda tutiladi. Shunga ko'ra tarbiya va ta'lim berish yozilganda turlicha yozilsalarda ammo ma'nosiga ko'ra bir biriga juda yaqin turadilar. Yosh avlodni tarbiyalashda barcha jihatlariga amal qilinishi lozim.

Har kishining dunyoda oromijoni tarbiyat,

Balki oxirida erur dorulamoni tarbiyat.

Tarbiyat hamroh etadur hur ila ruzvonlara,

Gar desam bo'lmas xato Jannat makoni tarbiyat.

Avloniy pedagogik asarlarida tarbiyani yuksak darajada shug'ullanishini bevosita insonni ulug'lash bilan uzviy bog'liq ekanligini ta'kidlagan. Chunki Oллоh insonni barcha mavjudotlardan, mahuqotlardan ulug' qilib yaratdi. Unga ikki dunyo saodatiga erishishdek, buyuk maqsad uchun aql beradi. Tarbiya ana shunday mo'jizalar uchun kalit hisoblanadi. Tarbiya shaxsni tarbiyalashda yetakchi o'rin tutadi. Tarbiyaning pedagogik texnologiyasi inson shaxsining tarbiyalanishidagi birinchi bosqich oiladir. Oila jamiyatning barqaror va betakror bo'g'inidir. Tarbiya qilguvchilar tabib kabi, tabib xastaning badanidagi kasalliklariga davo qilgan kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl markaziga yaxshi xulq davoni bermoq lozimdir. "Inson javhari qobildir, agar yaxshi tarbiya topib buzuq xulqlardan saqlanib go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa har kim qoshida maqbul baxtiyor bir inson bo'lib chiqar". Darhaqiqat, Avloniy satrlaridagi yozuvlar shunchaki siyoh emas, balki uning qorachig'idan qora qon bo'lib oqqan ko'zyoshlardir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xodjayev "Pedagogika" 1-Jild.
2. B.Qosimov O.Oltinbek "**Jadid adabiyoti namoyandalari**", "Abdulla Avloniy". Toshkent-2022.
3. R.A.Mavlanova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov "**Umumiy pedagogika**" Toshkent-2018.